



MAKROSOTSIOLINGVISTIKA VA MIKROSOTSIOLINGVISTIKA

Mirzohid TURSUNOV¹

¹*O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti ilmiy xodimi*

KALIT SO‘ZLAR	ANNOTATSIYA
Sotsiolingvistika, makrosotsiolingvistika, mikrosotsiolingvistika, til va jamiyat, til kontakti, til siyosati, til vaziyati, birtillilik, ko‘ptillilik, argotizm.	Mazkur maqolada sotsiolingvistikaning asosiy tadqiqot yo‘nalishlaridan hisoblanmish makrosotsiolingvistika va mikrosotsiolingvistika bo‘limlari haqida ma’lumot beriladi. Makrosotsiolingvistik tadqiqot doirasida til va jamiyat munosabatlari, til kontakti, til siyosati, til vaziyati kabi muammolarning tadqiqi haqida nazariy va amaliy ma’lumotlar o‘rin olgan. Mikrosotsiolingvistika bo‘limida esa kichik guruhlar tomonidan qo‘llanayotgan tilning qanday “ishlashi” tadqiqotning asosiy qismi hisoblanadi.
КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА	АННОТАЦИЯ
Социоллингвистика, макросоциоллингвистика, микросоциоллингвистика, язык и общество, языковой контакт, языковая политика, языковая ситуация, однопользичие, многоязычие, арготизм.	В данной статье представлена информация о разделах макро- и микросоциоллингвистики, являющихся одними из основных направлений исследований социоллингвистики. В рамках макросоциоллингвистического исследования содержатся теоретические и практические данные по изучению таких проблем, как язык и отношения общества, языковой контакт, языковая политика, языковая ситуация. Однако в разделе микросоциоллингвистики основной частью исследования является то, как язык, используемый небольшими группами, “функционирует”.
KEY WORDS	ABSTRACT
Sociolinguistics, macrosociolinguistics, microsociolinguistics, language and society, language contact, language policy, language situation, monolingualism, multilingualism, argotism.	This article provides information on the sections of macrosociolinguistics and microsociolinguistics calculated from the main areas of research in sociolinguistics. Also in the macrosociolinguistics section are theoretical and practical information about the study of problems such as language and society relations, language contact, language policy, language situation. In the microsociolinguistics section, however, how the language being used by small groups “works” is central to the study.

Kirish. Sotsiolingvistika tadqiq qiladigan muammolarning qamrov doirasidan kelib chiqib makrosotsiolingvistika va mikrosotsiolingvistikaga bo‘linadi. Jamiyatshunoslik fanida tadqiqotlar makro- va mikrosotsiologiya kabi bo‘limlarga ajratib tadqiq qilinishi natijasida sotsiolingvistikada makro- va mikrosotsiolingvistika bo‘limlari doirasida tadqiq qilish yuzaga keldi. Tadqiq tarzlarida jamiyatshunoslikdagi tadqiqot natijalaridan

ko‘p foydalanadigan sotsiolingvistikaning mikro- va makrosotsiolingvistika yo‘nalishlari jamiyat tomonidan qo‘llanayotgan til(lar)ning butun bir davlat miqyosida yoki turli katta va kichik sotsial jamoalar orasida qo‘llanishini tadqiq qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Til va jamiyat munosabatlari jahon tilshunoslari tadqiqotida ham, o‘zbek tilshunoslari tadqiqotida ham asosiy o‘rganish obyekti bo‘lib kelgan. Lekin til



va jamiyat munosabatlarining makrosotsiologiyistik va mikrosotsiologiyistik aspektidagi tadqiqotlari u qadar ko‘p emas. Mazkur tadqiqot davomida makro- va mikrosotsiologiyistika bo‘limi asosiy atamalarining mazmun-mohiyati sharhlandi va ushbu sharhlarda qiyosiy, leksikografik tahlillardan foydalanildi.

Natijalar. Makrosotsiologiyistika tilning ijtimoiy omillar bilan shartlangan katta ko‘lamdagi jarayonlarini, ya‘ni etnoslar va dunyo tillari, tilning mavjudlik shartlari va funksiyalari, lisoniy aloqalar, til va jamiyat, til va din ta‘sirleshuvlari kabilarni o‘rganadi. Tadqiq qilinayotgan jarayon va munosabatlar jamiyatga to‘liqligicha yoki uning katta jamoasi (ijtimoiy qatlam, etnos, etnik guruh) ga xos bo‘ladi. Tilni me‘yorlashtirish va kodifikatsiyalash muammolari, shuningdek, til siyosati va lisoniy rejalashtirish, ikkitillilik masalalari ham, eng avvalo, makrosotsiologiyistik yondashuv doirasida o‘rganiladi. Makrosotsiologiyistika bo‘limida eng ko‘p tadqiq qilingan va tadqiq qilinadigan hodisalardan biri til siyosati va til vaziyati masalalaridir.

Tabiiyki, ko‘p millatli davlatlarda, ayniqsa, milliy siyosatda, xususan, uning bevosita tarkibiy qismi bo‘lmish til siyosatiga jiddiy ehtiyoj seziladi. Shubhasiz, normal til siyosatisiz milliy masalani, biron-bir darajada bo‘lsin, hal qilish mushkul. Shuning uchun ham kattadir-kichikdir, har qanday davlatning o‘ziga xos til siyosati mavjud. Til siyosati deganda, davlatda, jamiyatda til masalalarini siyosiy, huquqiy va ma‘muriy tartibga solish tizimi, til muammolarini hal qilish bo‘yicha mafkuraviy tamoyillar va rasmiy-amaliy tadbirlar majmuyi,

mamlakatdagi til vaziyatiga rejali ta‘sir qilish mexanizmlari nazarda tutiladi [5; 17].

Til siyosati iqtisodiy yoki mafkuraviy siyosat singari davlat yoki uning vakolatli organi tomonidan o‘tkaziladi. Ko‘p tilli davlatda til siyosati to‘g‘ri o‘tkazilishi uchun avval til vaziyati prognozlashtirilishi kerak. Til vaziyatini bunday tarzda ilmiy baholashni “til prognozi” yoki “lisoniy prognozlash” deyish mumkin [8; 3].

Til siyosati ichki va tashqi til siyosatiga ajratilishi mumkin. Ichki til siyosati deganda, muayyan davlat doirasida bir yoki bir qancha tillarga nisbatan qo‘llanilgan chora-tadbirlar majmuyi ko‘zda tutiladi. Ko‘p millatli davlatlarda bir qancha tillar faoliyat ko‘rsatadi, shuning uchun ham bunday davlatlarning til siyosati milliy siyosatning muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Ichki til siyosatini O‘zbekiston misolida ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktyabrdagi “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5850-son Farmoniga muvofiq “2020–2030-yillarda o‘zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi” ishlab chiqildi. Bundan ko‘zlangan asosiy maqsadlardan biri milliy terminologiyani milliy til imkoniyatlariga tayangan holda qaytadan shakllantirish va rivojlantirishdir. Davlat tilini rivojlantirish departamenti tomonidan hozirgi kunda tilimizda qo‘llanayotgan o‘zlashma so‘zlarning milliy muqobilini nutq amaliyotga kiritish bo‘yicha qilayotgan amaliy harakatlari ichki til siyosatining bir ko‘rinishidir. Ushbu amaliy harakatlar davomida xalq tilida o‘zlashma qatlam sifatida qo‘llanuvchi *shurup*, *kovorking*,

bruschatka, bodikamera, parol, tyutor, IT-texnologiyalari, IT-park soʻzlari oʻrniga *buramamix, ish markazi, yoʻl gʻisht, yonkamera, oʻron, murabbiy, Axborot texnologiyalari, Axborot parki* kabi milliy muqobil soʻzlar taklif qilinmoqda, natijada ushbu soʻzlarning bari oʻzbek tili imlo qoidalariga mos shaklda tilda foydalanishi yuzasidan takliflar kiritilmoqda. *IT-park* yoki *IT-texnologiyalari* atamaları jamiyat aʼzolari tomonidan soʻzlashuvga kiritilsa, til egasi noqulay vaziyatga tushadi, jamiyat aʼzolari bu atamani “it parki” yoki “it texnologiyalari” deb tushinishi mumkin boʻladi, yaʼni bu yerda it soʻzi kuchuk soʻzi bilan assotsiatsiyaga kirishadi.

Hozirgi kunda AQSh, Angliya, Germaniya, Janubiy Koreya, Yaponiya, Xitoy kabi rivojlangan davlatlarda oʻzbek tilini oʻqitilayotgani, oʻzbek tilini oʻrganuvchilar va bu tilda gaplashuvchilar sonining ortib borayotgani, oʻzbek tilida kompyuter dasturlarining yaratilayotgani, xullas, oʻzbek tilini dunyoviy tillar darajasiga olib chiqishga qaratilgan saʼy-harakatlar oʻzbek tilining rivojlanayotganligini belgilaydi. Masalan, Oʻzbekistonning xorijiy mamlakatlardagi elchixonalari huzurida “Oʻzbek tili doʻstlari” klubi tashkil qilingan boʻlib, bu klub tomonidan “Oʻzbek tilining izohli lugʻati”, “Oʻzbek tilining imlo lugʻati”, “Davlat tilida ish yuritish” kabi kitob va qoʻllanmalarining taqdimotlari oʻtkazilishi tilimizning jahon uzra ommalashayotganidan dalolatdir.

Sotsiolingvistikadagi asosiy masalalardan yana biri til vaziyati muammosidir. Tilning amal qilishi bilan bogʻliq bu tushuncha har bir jamiyat uchun xosdir. Tilshunos V.A.Avronin

til vaziyatini tillar va ularning turli yashash shakllari oʻrtasidagi oʻzaro aloqaning muayyan tipi, deb tushuntirgan [1, 2].

Bir til, uning shakllari yoki bir necha til va shakllarining biror hududda, maʼlum tarixiy davrda, muayyan ijtimoiy omillar taʼsirida oʻz xizmat, vazifalarini ado etishini anglatadi [9; 20].

Ch.Fergysonning fikricha, **“lisoniy vaziyat”** (language situation) deyilganda, muayyan bir vaqtda, muayyan bir joyda qanday tildan foydalaniladi, tillarning soni, qanday turdagi til ushbu hududda ishlatiladi, qancha odam, qanday sharoitda bu tilda gaplashadi, ushbu jamoa aʼzolarining bu tilga boʻlgan munosabati, umuman, tilning qoʻllanish doirasi haqidagi masalalar tushuniladi [3; 157]. Yuqorida keltirilgan taʼriflardan xulosa qilib shuni aytish mumkinki, muayyan davlatda bir tilning turli shakllarda (vazifaviy uslublar, adabiy til va dialekt, adabiy til va soʻzlashuv nutqi, adabiy til va professional leksika munosabatlarida) amal qilishi yoki ikki va undan ortiq tilning bitta davlatda muloqot vositasi sifatida xizmat qilishi til vaziyati hisoblanadi.

Til vaziyati turlicha koʻrinishlarda namoyon boʻladi. Mutaxassislar bu tushunchaga miqdor, sifat va baho-munosabat belgisiga koʻra yondashadilar [4], yaʼni muayyan davlat yoki maʼmuriy-siyosiy hududda amal qiladigan tillarning miqdori, huquqiy maqomi, xalqning bu tilga munosabatidan kelib chiqib joylashishi nazarda tutilmoqda.

Bir hududda amal qiladigan tillarning miqdori yoki lisoniy birxillik yohud harxillikka koʻra, bir tilli va koʻp tilli til vaziyati farqlanadi. Bir tilli vaziyatda bitta til turli vazifaviy

uslublarda, ko'ne, dialekt, professional leksika kabi shakllarda amal qiladi. Ko'p tilli vaziyatda muayyan ma'muriy-siyosiy hududda ikki va undan ortiq til amal qiladi. Ko'p tilli vaziyat dunyoning ko'plab davlatlarida amal qiladi. Masalan, O'zbekistonda o'zbek tili davlat tili sifatida, hududiy xoslanishiga ko'ra, qozoq, qirg'iz, tojik, turkman, qoraqalpoq, rus tillari muloqot vositasi sifatida xizmat qiladi. Qoraqalpog'istonda o'zbek va qoraqalpoq tillari davlat tillari sifatida, rus va qozoq tillari esa millatlararo aloqa tili sifatida amal qiladi [7, 11].

Til va jamiyat munosabatlari ham makrosotsiologiyaning o'rganish obyekti hisoblanadi. Til va jamiyat munosabatlari o'zbek tilshunosligida o'tgan asrning 80-yillarida “Tilshunoslikka kirish” qo'llanmasida [10; 17-19] alohida to'xtalgan bo'lsa ham, til va jamiyat muammolari ancha avvalroq tilga olina boshlangan. Fitrat, Elbek, Botu singari jadidlarning asarlarida ozmi-ko'pmi shunga oid qaydlar bor [6; 11].

Mikrosotsiologiyat bo'limida kichik sotsial jamoalar (oila, bog'cha, maktabdagi sinflar, ma'lum bir uyushgan ijtimoiy guruhlar)ning norasmiy muloqotida tilning qanday “ishlashi” tadqiq qilinadi. Shuningdek, mikrosotsiologiyatda nutqiy muloqot turlari (diada va triada)ni tadqiq etish ham keng tarqalgan [11; 54]. Bunday sotsial guruh a'zolarining nutqiy muloqot jarayonlarini tahlil qilish davomida muloqotchilarning ijtimoiy maqomi va rollari qay darajada muloqot jarayoniga mos tushayotganligi tahlil qilinadi. Makro- va mikrosotsiologiyatning asosiy farqi shuki, makrosotsiologiyat dunyo tillari, tilning yashash shakllari, til vaziyati, til siyosati kabilarni butun bir mamlakat, viloyat shahar

yoki qishloq miqyosida tadqiq qilsa, mikrosotsiologiyat bo'limida esa kichik sotsial guruhlarda tildan qanday foydalanish jarayonlari o'rganiladi. Shu o'rinda aytish joizki, makro jamoa deganda xalq bilan, jamiyat bilan, elat bilan bog'liq narsalar tushuniladi. Mikro jamoa deganda esa oila, bog'cha, maktabdagi sinflar, ma'lum bir uyushgan ijtimoiy guruhlar tushuniladi.

Ma'lum bir uyushgan jamoa yoki to'lda tilida qo'llanayotgan argotizmlar ham mikrosotsiologiyat bo'limida tahlil qilinadi. Masalan, Hamza Hakimzoda Niyoziyning “Maysaraning ishi” dramasidan olingan quyidagi parchada *malhuz emas, ne'mati jannat* singari argotizmlar uchraydiki, bunda so'zlovchining maqsadi ommadan sir tutilganligi ma'nosi ifodalangan: “Mulloro'zi, Bizga ziyofat *malhuz emas. Ne'mati jannat*ni keltir”. Bu parchada *malhuz emas* – “o'ylab ko'rilgan emas”, “*ne'mati jannat*” – “yor, mahbuba” ma'nolarida qo'llangan. Shaxslarning ijtimoiy maqomi jihatidan ham “*ne'mati jannat*” birikmasida farqlar sezilib turibdi. Ya'ni ichuvchilar jamoasiga oid bo'lgan shaxsning nutqida “ne'mati jannat” birikmasi “yor”, “mahbuba” ma'nosini ifodalamoqda, Islom diniga mansub din vakilining nutqida esa “ne'mati jannat” birikmasi Ollohning jamoliga yetishish yoki ayol kishi kabi ma'nolarni ifodalashi mumkin. Yoki ichuvchilar argosiga mansub bo'lgan “domlajon”, “najot” leksemalari spirtli ichimlikning ma'lum bir turlarini ifodalash uchun qo'llansa, oddiy xalq tilida bu domlajon so'zi ta'lim beruvchi shaxs yoki din vakili (imom)ni ifodalaydi. Najot so'zi esa yordamga muhtojlik ma'nosini bildiradi. Yuqoridagi misolda ko'rib turganimizdek

o‘zbek jamiyatida spirtli ichimlikni *arog* deb aytish odobsizlik sanalgani uchun so‘zlovchi argotik so‘z bo‘lmish “domlajon”, “najot” leksemalari orqali o‘z fikrini ifodalashga harakat qilgan.

Mikrosotsiologiyatilning kichik guruhlar ichida maxsus qo‘llanishini, turli ijtimoiy guruhlarning tildan foydalanish tarzlarini o‘rgansa-da, uning obyektini bevosita til tashkil qiladi. Biroq u inson haqidagi boshqa fanlar, eng avvalo, psixologiya va ijtimoiy psixologiya bilan chambarchas aloqada, chunki uning asosiy tushunchalari aynan shu sohalardan olingan.

Mikrosotsiologiyatil shug‘ullanadigan muammolarni ikki guruhga ajratish mumkin:

1) muayyan kichik ijtimoiy guruhda qanday til qo‘llanadi?

2) bu til shu kichik jamoa a‘zolari tomonidan qanday ishlatiladi yoki shu kichik jamoalar tildan qanday foydalanadi?

Bu savollarning javobi bir qarashda ma‘lumday ko‘rinadi. Agar muayyan guruh uni qamrab olgan biror jamiyat (millat, mamlakat, etnos va sh.k.) ichida mavjud bo‘lsa, guruh a‘zolari guruh ichidagi muloqotda shu jamiyatda amalda bo‘lgan til hosilalaridan foydalanishi kerak [2; 178].

Mikrosotsiologiyatilkada o‘qituvchi-o‘quvchi, ota-ona, qaynona-kelin nutqiy muloqotining ijtimoiy xususiyatlarini tadqiq qilish muhim natijalarni beradi. Bunday mikroguruh a‘zolarining nutqiy muomalasini batafsil tadqiq etish natijasida muloqotchilarning turli darajadagi mavqeyi va rollarini boshqaruvchi nutqiy muloqot mexanizmlari ochib beriladi. Quyida misollar orqali ko‘rib chiqamiz.

Agar siz 17 yosh bo‘lsangiz va ko‘chada uzoqdan Jamshid ismli do‘stingizni ko‘rib qolsangiz, siz bemalol baland va norasmiy ovoz bilan “Hoo, Jamshid!” deb chaqirasiz. Boshqa vaziyatda esa, masalan, siz maktab direktoringizni o‘z mashinasiga chiqayotib dastro‘molini tushib qolganini ko‘rsangiz, albatta “Assalomu alaykum, Zafar Davronovich, ro‘molchangiz tushib qoldi” deb aytasiz. Ushbu so‘z tanlovi so‘zlovchi va tinglovchining ijtimoiy holati va jamiyatdagi mavqeyiga bog‘liq. Agar 17 yoshli bola “Ey, ro‘molchangiz tushib qoldi” desa, bu qo‘pollik deb hisoblanishi mumkin. Ma‘lumki, jamiyatda maktab direktori yuqori mavqega ega, agar bola ushbu ijtimoiy konstruksiyalarni tushunsa va hurmat qilsa, u o‘z fikrini bildirish va munosib hurmat ko‘rsatish uchun o‘z tilini tanlay oladi.

Yana bir misolga to‘xtasak, bir shaxsga “xonim” yoki ismi bilan murojaat qilish oddiy so‘z tanlovi haqida emas, balki murojat qilayotgan shaxs va tinglovchining munosabatlari va ijtimoiy o‘rni, maqomi va mavqeyini anglash mumkin. Xuddi shunday gaplar strukturasi tanlab gapirish, jumladan “Tuzni uzatib yubor!” o‘rniga “Iltimos, tuzni uzatib yuborolmaysizmi?” yoki “Ovqatning tuzi sal kamroq bo‘libdi, shekilli, ozroq tuz sepib yuboray-chi” kabi muqobil jumladan foydalanish bu sodda gap strukturasi tanlab qolmay, balki, tanlab gapirilayotgan gap shaxsning madaniy qadriyatlarini va xushmuomalalik normalarini o‘z ichiga oladi.

Natija va xulosa. Til va jamiyat munosabatlari makrosotsiologiyatil bo‘limida ham mikrosotsiologiyatil bo‘limida ham



www.isft.uz

“ISFT” ILMİY-USLUBIY JURNAL
“ISFT” НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ
“ISFT” SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL

ISSN: 3030-329X

2024/3-son



www.jurnal.isft-ilm.uz

tadqiqot obyekti vazifasini bajaradi. Til siyosati, til vaziyati, ko‘ptillilik, tilning yashash shakllari kabi tadqiqotlar makrosotsiologiyaviy bo‘limida, ma’lum bir maqsad yo‘lida

birlashgan ijtimoiy guruhlarda yoki tilning ma’lum bir kichik guruhlar ichida maxsus qo‘llanishini esa mikrosotsiologiyaviy tadqiq qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Аврорин В.А. Проблемы изучения функциональной стороны языка (к вопросу о предмете социолингвистики). – Л. Наука, 1975.
2. Беликов В. И., Крысин Л. П. Социолингвистика. – М., 2001. 315 с.
3. Ferguson С.А. Language structure and language use. – Stanford, 1971.
4. Лингвистический энциклопедический словарь. Под редакцией В.Н Ярцевой.– М.: СЭ,1990.
5. Махмудов Н. Тил сиёсати ва сиёсат тили // Ўзбек тили ва адабиёти, 2016. – №4.– Б. 16-29.
6. Одилов Ё. Тил ва жамият таъсирлашуви // Ўзбек тили ва адабиёти, 2020. – №4.– Б. 10-17.
7. Одилов Ё. Тил вазияти // Ўзбек тили ва адабиёти. 2021. №4. – Б. 10-15.
8. Одилов Ё. Тил сиёсати: давлат тили, расмий тил ва миллий тиллар // Ўзбек тили ва адабиёти, 2022. – №2. – Б. 3-10.
9. Қурбониязов Г.А. Қорақалпоғистондаги лисоний вазият. Филол. фанл.докт. ... дисс. автореферати. – Фарғона, 2021.
10. Содиков А., Абдуазизов А., Ирискулов М. Тилшуносликка кириш. – Тошкент.: Ўқитувчи, 1981. – 266 б.
11. Usmanova Sh., Bekmuhamedova N., Iskandarova G. Sotsiologiyaviy (o‘quv uslubiy qo‘llanma). – Toshkent.: Universitet, 2014.